

фаолиятдан олинган пул оқимлари ҳамда инвестиция фаолиятдан олинган пул оқимлари салбий бўлиши жамият пул оқимларини бошқариш яхши эканлигидан далолат беради. Акциядорлик жамиятининг асосий фаолиятдан олинган пул оқимлари салбий ва молиявий фаолиятдан олинган пул оқимлари ҳамда инвестиция фаолиятдан олинган пул оқимлари ижобий бўлиши жамиятнинг пул оқимларини бошқариш ачинарли ҳолатда ва жамият банкротга юз тутиш арафасида турганлигини кўрсатади.

Таъкидлаш жоизки, акциядорлик жамиятлари пул оқимларини бошқаришда жамиятнинг асосий фаолиятдан олинган пул оқимлари, молиявий фаолиятдан олинган пул оқимлари ва инвестиция фаолиятдан олинган пул оқимларининг ижобий ва салбийлигига катта эътибор қилиш лозим. Акциядорлик жамиятининг пул оқимларида асосий фаолиятдан олинган пул оқимлари ижобий ва молиявий фаолиятдан олинган пул оқимлари ижобий ва инвестиция фаолиятдан олинган пул оқимлари салбий бўлиши жамият учун яхши ҳолат, деб таъкидласак бўлади. Сабаби, жамиятнинг пул оқимлари келажакда ошиб боришини ва яқин келажакда жамият пул оқимларининг кўпайишидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бурханов А.У., Ҳамдамов О.Н. Молиявий менежмент. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожлантириш” нашриёт уйи, 2020. 240-241-б.
2. Тошмуродова Б.Е., Элмирзаев С.Е., Турсунова Н.Р. Молиявий менежмент. Дарслик. – Т.: ТМИ, 2017. 145-б.
3. Курбонов Х. Корпоративные финансы. – Т.: Иқтисод-молия, 2007, с.40.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DIVIDENDLARNI HISOBGA OLIISH

Muratov Aziz Akbarovich,

Qo'qon universiteti o'qituvchisi, Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti.

Rustamov Muhammadazizxon Ulug'bek o'g'li,

Qo'qon universitetining EK-1-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida korporativ boshqaruvda aksiyadorlik jamiyatlarining dividendlarini hisoblash va ularni buxgalteriya hisobida hisobga olish masalalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar va takliflar keltirilgan

Kalit so'zlar: dividend, aksiyadorlik jamiyati, aksiyador, aksiya, pul ko'rinishidagi dividend, aksiyalar ko'rinishidagi dividend, aksiyalarning nominal qiymati, aksiyalarning bozor qiymati, dividendlarni hisobga olish

Annotation. This article presents scientific and methodological recommendations and proposals aimed at improving the issues of calculating dividends of joint-stock companies in corporate governance and their accounting in accounting in the conditions of transition to the digital economy.

Keywords: dividend, joint stock company, shareholder, share, cash dividend, stock dividend, nominal value of the stock, market value of the stock, accounting for dividends.

Аннотация. В данной статье представлены научно-методические рекомендации и предложения, направленные на совершенствование вопросов расчета дивидендов

акционерных обществ в корпоративном управлении и их учета в бухгалтерском учете в условиях перехода к цифровой экономике.

Ключевые слова: дивиденд, акционерный общества, акционер, акция, дивиденд в денежном виде, дивиденд в виде акций, номинальную стоимость акции, рыночной стоимость акции, учет дивидендов.

Introduction. Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda buxgalteriya hisobi va buxgalteriya hisobini yuritish jarayonini xalqaro andozalarga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jadallashganini ko'rish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatida buxgalteriya jarayonini to'g'ri, halol va ob'ektiv boshqarish birinchi navbatda mulk egalariining manfaatlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi. Chunki faoliyat natijasida olingan foydani to'g'ri taqsimlash hamda uni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu mavzuni yoritishda quyidagi iqtisodiy atamalarga ta'rif berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dividend lotincha *dividendum* so'zidan tarjima qilingan bo'lib, taqsimotga tegishli narsa, ya'ni aksiyadorlik jamiyatlari yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar foydasining bir qismini aksiyadorlar, ishtirokchilar o'rtasida o'zlariga tegishli ulushlarga, soniga va turlariga ko'ra taqsimlash nazarda tutiladi.

Dividendlar odatda naqd pul shaklida to'lanadi. Bunday dividendlar pul shaklda berilgan dividendlari deb ataladi. Bundan tashqari, dividendlar aksiyalar (ing. Stock dividends) shaklida yoki aksiyadorlik jamiyatining boshqa mulki shaklida to'lanishi mumkin.

Amalda, dividendlarni hisobga olish sohasida ko'plab noaniqliklarga, aniqrog'i, tushunmovchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda qabul qilingan "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida jamiyatning sof foydasini har chorakda, olti oyda bir yoki yilda bir marta jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish huquqi belgilangan.

Agar mas'uliyati cheklangan jamiyat yirik korxona bo'lsa, ya'ni kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lmasa, unda bu masala bo'yicha muammo bo'lmaydi. Chunki ular har chorakda moliyaviy hisobotlarni tayorlashlari mumkin, ya'ni ularda sof foydani aniqlash va uni taqsimlash imkoniyatiga egalari.

Ammo soliq organlariga moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq kichik biznes sub'ektlari hisoblangan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faqat yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etadilar. Ko'p hollarda bu tartib noto'g'ri talqin qilinadi.

Mazkur Nizomga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari hisoblangan yuridik shaxslar yil yakuni bo'yicha soliq organlariga moliyaviy hisobotlarni taqdim etishlari shart. Ammo bu ushbu korxona o'z hisob siyosatida hisobotlarni taqdim etishning boshqa muddatini belgilash huquqiga ega emas degani emas.

Agar O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartining №1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar" ning 60-moddasiga e'tibor qaratsak, moliyaviy hisobotlar kalendar yili davridan boshqa muddatga, ya'ni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda bir oy yoki uch oy davomida ma'lum bir davr uchun tayyorlanishi mumkin. Demak, korxonaning hisob siyosatida hisobot davri oylik, choraklik sifatida belgilanishi mumkin hamda bu davrlar uchun moliyaviy hisobot tuziladi. Yaratilgan moliyaviy hisobotning taqsimlanmagan foydasini yuqorida

ko'rsatilgandek ta'sischilar o'rtasida taqsimlash mumkin bo'ladi. Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlari, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, agar hisob siyosatida ko'rsatilgan bo'lsa, oraliq dividend to'lash huquqiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 mayda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 6-bobi dividendlarni to'lash deb nomlanib, 44-moddadan 56-moddasigacha dividendlar, dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilish muddatlari, dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror, dividendlarni to'lash tartibi, dividendlar to'lash mumkin bo'lgan aksiyalar, to'lanmagan (olinmagan) dividendlar, dividendlarni to'lashga doir cheklovlar, dividendlar to'lanishi haqida aksiyadorlarni xabardor qilish, dividendlarga soliq solish haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 50-moddasiga asosan aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Dividendlarning miqdori aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek aksiyadorlik jamiyatining ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlar aksiyadorlik jamiyatining tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan ham to'lanishi mumkin. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar aksiyadorlik jamiyatining buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari – zaxira fondi hisobidan ham to'lanishi mumkin.

Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlik jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmazligi lozim.

Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyati tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to'lovini amalga oshirish huquqiga ega.

Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra aksiyadorlik jamiyatining ixtiyorida qoldirilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reyestrndan olingan, jamiyat tomonidan tasdiqlangan ko'chirma hamda jamiyat buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana to'g'risidagi ma'lumotnomasi ayirboshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar to'lashning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi quyidagicha amalga oshiriladi. Agar korxona savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan bo'lsa va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra aksiyadorlik jamiyati ixtiyoridagi taqsimlanmagan foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan holda buxgalteriya provodkasi qanday holatda berilishini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan taqsimlanmagan foydaning quyidagicha taqsimoti belgilandi: taqsimlanmagan foydaning 75 foizi - korxonaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun, ya'ni yangi qurilish, bino va inshootlarni kapital ta'mirlash uchun ajratmalar; taqsimlanmagan foydaning 15 foizi dividend to'lovi uchun yo'naltirildi. 5 foiz - kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish va auditorlik tekshiruvlari uchun to'lov; 5 foiz - kompaniya boshqaruvining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun. Yuqoridagi qarorlar ijrosi buxgalteriyada hisobga olish jarayonida quyidagicha provodkalar beriladi.

Korxonaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan 75 foiz mablag'larni hisobga olishda: a) Debet 8710 Kredit 8520, b) Debet 8520 Kredit 0820, 0710, 0110.

- Dividendga yo'naltirilgan 15 foiz ajratmalarni hisobga olishda Debet 8710 Kredit 6610.
- 5 foiz kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish va auditorlik tekshiruvlari uchun to'lov a) Debet 8710 Kredit 8521 b) Debet 8521 Kredit 6710.
- 5 foiz kompaniya boshqaruvining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun: a) Debet 8710 Kredit 8522, b) Debet 8522 Kredit 5110

Bunday holda, dividendlarni naqd pulda, aksiyalar shaklida, shuningdek jamiyatning boshqa mol-mulki shaklida to'lash buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dividendlarni naqd pul shaklida to'lash:

a) Debet 6610 Kredit 5010-5530, b) Debet 6610 Kredit 6410

Aksiyalar shaklida dividendlar to'lashda aniqlik kiritilishi kerak bo'lgan jihatlar mavjud. Amalda chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymati bilan aksiyalarning bozor (sotib olish) qiymati o'rtasida farqlar mavjud. Shu sababli, aksiyalar shaklida dividendlarni to'lash buxgalteriya hisobida bu farqlarni hisobga olishni talab qiladi. Agar aksiyalarning bozor (sotib olish) qiymati ularning nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati qo'shilgan kapitalni hisobga olishi kerak va bu quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6610 (aksiyaning nominal qiymati uchun) Kredit 8310-8330, Debet 6610 (aksiyaning nominal qiymati va bozor qiymati o'rtasidagi farq summasi uchun) Kredit 8410.

Agar aksiyalarning bozor (sotib olish) qiymati nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda aksiyadorlik jamiyati qoplanmagan zararni hisobga olishi kerak va bu quyidagicha aks ettiriladi: Debet 6610 (aksiyaning nominal qiymati uchun) Kredit 8310-8330.

Agar aksiyalarning oldingi joylashuvidan olingan qo'shilgan kapitalning qoldig'i mavjud bo'lsa va bu farqni qoplash uchun etarli bo'lsa: Debet 8410 (aksiyalarning nominal va bozor qiymati o'rtasidagi farq miqdori uchun) Kredit 6610.

Agar aksiyalarning oldingi joylashuvidan olingan qo‘shilgan kapitalning qoldig‘i bo‘lmasa: Debet 8710-8720 (aksiyalarning nominal va bozor qiymati o‘rtasidagi farq miqdori uchun) Kredit 6610

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 06.05.2014 yildagi O‘RQ-370-son. (manba: www.lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 06.12.2001 yildagi 310-II. (manba: www.lex.uz).
3. Эрматов, А. А., & Муратов, А. А. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 158-165.
4. Akbaralievich, E. A., & Akbarovich, M. A. (2023). Features of the Formation and Accounting of the Authorized Capital in Organizations of Various Forms of Ownership. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 13-20.
5. Эрматов, А. А. (2022). Отражение Арендных Операций В Финансовой Отчетности В Соответствии С Правилами Мсфо. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 108-112
6. Эрматов, А. А., & Гафурова, М. М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода На Мсфо. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(12), 8-16.
7. Эрматов, А. А. (2022). ЗНАЧЕНИЕ УЧЕТА СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА НА ПРЕДПРИЯТИИ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 534-542.
8. Po‘latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
9. Iqboljon o‘g‘li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI. *Kokand University Research Base*, 742-745.
10. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(5), 70–73. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/630>
11. Umarov, O., & To‘xtanazarova, M. (2024). MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 37-40.
12. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. *Kokand University Research Base*, 940-943..
13. Omonjon, U., & Malohatxon, I. (2024). O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH. *Kokand University Research Base*, 962-964.
14. Omonjon, U. (2024). MADANIY TURIZMDA EKSORSIYANING AHAMIYATI. *Kokand University Research Base*, 944-950.

15. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 28-33.
16. Abdullajonov, D. S. O., & Kasimova, G. K. Q. (2022). DEVELOP A TRAINING PROGRAM FOR YOUNG PROFESSIONALS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS, WHICH IS THE CORE OF CYBERSECURITY. Academic research in educational sciences, 3(6), 185-192.
17. Surayyoxon, M., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1210-1212.
18. Olimov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OUR COUNTRY ALONG WITH INTERNET TECHNOLOGY INNOVATIONS. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(2), 210-216.
19. Davronjon, A., & Gulmiraxon, K. (2022). WIDESPREAD INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE REAL SECTOR OF THE ECONOMY, AS WELL AS IN AGRICULTURE AND WATER MANAGEMENT. World Economics and Finance Bulletin, 9, 167-172.
20. Yuldasheva Nilufarxon A'zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o'g'li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
21. Yuldasheva, N. A. , Bobojonov, J., Tuxtaboyev , M., & Hakimov , A. (2023). O'ZBEKISTON RESBUPLIKASIDA KICHIK BIZNESNI QURILISH SOHASIDAGI ULUSHI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS ", 2(2), 122–126. Retrieved from <https://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1289>
22. Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li. (2024). EKOLOGIK SOLIQQA TORTISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISH YO'LLARI. Kokand University Research Base, 931–934. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/260>

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA ISHLASH MASALALARI

Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

i.i.farmonov@kokanduni.uz

Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

lionslar9233@gmail.com (+998999972326)

Annotatsiya: Zamonaviy sharoitda kompaniyada ichki audit xizmatini tashkil etilishi ushbu kompaniya rahbariyatiga samarali va aniq qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida eng shaffof va ishonchli iqtisodiy ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi, yuqori